
Buvayda tuman prokurori Ziyovuddin Sulaymonov tomonidan aholining ijtimoiy holatini yaxshilash borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, tuman prokurori tomonidan markaziy dehqon bozorida aholiga yaratilgan qulayliklar, sotilayotgan mahsulotlarning narxlari, sifati, bozor hududining sanitariya-gigiyenik holati o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli mas'ullarga ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, tuman prokurori 2-sektor hududida joylashgan "Sho'rqishloq" "Turk" "Qum" "Urganji" "Jilva" MFYlarda yashovchi kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi mavjud hamda yakka-yolg'iz yashovchi keksalarning yashash xonadonlariga borilib, ularga bir martalik zaruriy oziq-ovqat maxsulotlari berildi.

Bundan tashqari, 2-sektor rahbari 35-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lib, tarbiyalanuvchi bolalarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

<https://t.me/Buvaydaaxborotxizmati>

2023-09-06 07:07:44